

IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH


2021 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada – 6 567,6 mlrd. so‘mni (AQSH dollari ekvivalentidagi hajmi – 624,0 million AQSH dollarini) hamda 2020 yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 114,0 foizni tashkil qildi.

Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi (2021 yil yanvar-iyun)

	<i>Jami</i>	<i>shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:</i>	
		<i>davlat</i>	<i>nodavlat</i>
Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m	6 567,6	391,2	6 176,4
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>			
davlat byudjeti mablag‘lari	223,0	211,6	11,4
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	100,5	100,5	-
korxonalar va aholi mablag‘lari	3 135,3	68,6	3 066,7
chet el investitsiyalari va kreditlari	2 101,0	7,0	2 094,0
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	934,0	3,5	930,5
Tiklanish va taraqqiyot fondi	73,8	-	73,8

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta’minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasini rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.

2021 yilning yanvar-iyun holatiga alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foizda)



- Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi
- Ishlab chiqarish sanoati
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash
- Turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalarqarish sanoati
- Boshqa faoliyat turi

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

(mlrd. so ‘m)

	<i>Yanvar-iyun</i>			
	<i>2020 yil</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foizda</i>	<i>2021 yil</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foizda</i>
Jami	5 855,4	100,0	6 567,6	100,0

shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:

qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	624,3	10,7	859,9	13,1
------------------------------------	-------	------	-------	------

	<i>Yanvar-iyun</i>			
	<i>2020 yil</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foizda</i>	<i>2021 yil</i>	<i>Umumiy hajmga nisbatan foizda</i>
tog‘-kon sanoati	411,0	7,0	680,7	10,4
ishlab chiqarish sanoati	2 590,4	44,2	2 943,5	44,8
elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash	23,6	0,4	147,8	2,2
suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	190,0	3,2	180,9	2,8
qurilish	361,1	6,2	540,5	8,2
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash	140,4	2,4	573,3	8,7
tashish va saqlash	33,4	0,6	60,1	0,9
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	3,8	0,1	6,4	0,1
axborot va aloqa	36,5	0,6	16,3	0,2
moliyaviy va sug‘urta faoliyati	13,4	0,2	7,8	0,1
professional, ilmiy va texnik faoliyat	17,8	0,3	69,6	1,1
ta’lim	63,1	1,1	59,8	0,9
sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	37,5	0,6	41,7	0,6
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	291,0	5,0	298,1	4,5
san’at, ko‘ngil ochish va dam olish	10,4	0,2	14,5	0,2
boshqa faoliyat turlari	1 007,7	17,2	66,7	1,2

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 680,7 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 10,4 %), ishlab chiqarish sanoatida – 2 943,5 mlrd. so'm, (44,8 %) shundan oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda 205,5 mlrd. so'm (3,1 %), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishda – 154,2 mlrd. so'm (2,3 %), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishda – 2 424,9 mlrd. so'm (36,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 147,8 mlrd. so'm (2,2 %), qurilishda – 540,5 mlrd. so'm (8,2 %), tashish va saqlashda – 60,1 mlrd. so'm (0,9 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 573,3 mlrd. so'm (8,7 %), axborot va aloqada 16,3 mlrd. so'm (0,2 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 69,6 mlrd. so'm (1,1 %), ta'limda – 59,8 mlrd. so'm (0,9 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 298,1 mlrd. so'mlik (4,5 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2021 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 2 101,0 mlrd. so'mni yoki 2020 yilning mos davriga nisbatan 57,0 foizni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya

va kreditlarning tarkibi

(2021 yilning yanvar-iyunida)


	<i>Umumiy hajmi (mlrd. so'm)</i>	<i>Shu jumladan:</i>	
		<i>davlat kafolati ostida</i>	<i>to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar</i>
Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	2 101,0	90,8	2 010,2

shu jumladan:

davlat	6,9	6,9	-
nodavlat	2 094,1	83,9	2 010,2

Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi 32,0 foizni tashkil qildi.

**Xorijiy investitsiya va kreditlarning
alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**




Joriy yilning yanvar-iyun oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 45,3 foizni tashkil qilgan va 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 9,8 foizga ko'paygan, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 15,5 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi



2021 yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ifodalangan

	<i>Investitsiyalar hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshi (ming so‘m)</i>	<i>O‘sish sur’ati, % da</i>
Jizzax viloyati	6 567,6	114,0	4 632,6	111,7
<i>shahar:</i>				
Jizzax	1 638,7	108,6	9 033,4	106,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	246,9	104,0	5 287,2	102,4
Baxmal	75,0	102,7	468,3	100,5
G‘allaorol	176,9	109,1	1 005,8	106,8
Sharof Rashidov	304,9	115,5	1 338,6	112,5
Do‘slik	180,6	116,7	2 704,0	114,8
Zomin	543,1	128,4	3 234,6	125,6
Zarbdor	158,9	113,7	1 793,3	110,8
Zafarobod	1030,9	124,6	19 524,5	122,5
Mirzacho‘l	251,6	115,9	4 962,2	114,3
Paxtakor	277,9	123,6	3 651,3	121,1
Forish	1 591,9	108,5	16 917,6	106,9
Yangiobod	90,2	141,8	3 143,6	139,3

Ijtimoiy soha obyektlarini qurish

Uy-joy qurilishida 298,1 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 4,5 foizni tashkil qildi.

**2021 yilning yanvar-iyun oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya
hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy
va ijtimoiy soha obyektlari**

	<i>Barcha manbalar hisobidan</i>			
	<i>Foydalanishga topshirildi</i>		<i>2020 yil yanvar-iyuniga nisbatan foizda</i>	
	<i>jami</i>	<i>shu jumladan: qishloq joylarda</i>	<i>jami</i>	<i>shu jumladan: qishloq joylarda</i>
Uy-joy, umumiyl maydoni ming kv.m	309,6	212,7	98,0	110,0
<i>undan:</i> <i>yakka tartibdagi uy-joylar</i>				
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	309,6	212,7	102,0	111,0
Umumiyl ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni				
Suv tarmoqlari, km	279,5	236,2	229,0	318,0
Gaz tarmoqlari, km	17,8	8,9	101,0	126,0

2021 yilning yanvar-iyun oylarida umumiyl maydoni 309,6 ming kv m bo'lgan 1 851 mingta uy yoki 1 851 mingta kvartira (2020 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 98,0 %), shu jumladan qishloq joylarda 212,7 ming kv m (110 %) maydonga ega 1 231 mingta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 279,5 km suv tarmoqlari (236,2 km qishloq joylarda) va 17,8 km gaz tarmoqlari (8,9 km qishloq joylarda) ishga tushirilib, mos ravishda 2020 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 229,0 va 101,0 foizni, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich suv tarmoqlari 318,0 foizni, gaz tarmoqlari 126,0 foizni tashkil qildi.

Suv tarmoqlari qurilishiga 93,9 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,9 mlrd. so'm (1,0 %) Suv ta'minoti va kanalizasiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan 93,0 mlrd. so'm (umumiyl hajmning 99,0 %) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,3 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,3 mlrd. so'm (umumiyl hajmning 100,0 %) o'zlashtirildi.

Qurilish faoliyati

2021 yilning yanvar-iyun oylarida 1 383,5 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 105,8 foizni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari tarkibi,

mlrd. so ‘mda

	yanvar-iyun	
	2020 yil	2021 yil


Qurilish ishlari hajmi	1 382,2	1 383,5
-------------------------------	----------------	----------------

shu jumladan:

davlat	32,1	33,9
nodavlat	1 350,1	1 349,6

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 1 349,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,6 foizini tashkil qildi.

Mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish tashkilotlarining o‘z kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)




Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi

Qurilish ishlari umumiy hajmining 83,5 foizi binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari, 10,8 foizi fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari va 5,7 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to'g'ri keldi. Shu jumladan umumiy hajmdan 80,9 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to'g'ri keldi.

Hisobot davrida Jizzax viloyati bo'yicha jami qurilish ishlari hajmi 13 83,5 mlrd. so'm nodavlat sektorining ulushi 97,6 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 80,9 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarini texnik qayta qurollantirishga 19,1 foizi esa, kapital, joriy ta'mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to'g'ri keldi.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida faoliyat turlari
bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'mda**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyhalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallangan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 83,5 foizni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatgichga nisbatan 2,0 foiz punktga ko'paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 10,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 5,7 foizi to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 1,7 foiz punktga kamaydi.

**2021 yil yanvar-iyun oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining
korxonalar toifasi bo‘yicha ulushi**
(jamiga nisbatan % da)



■ Norasmiy sektor ■ Kichik korxona va mikrofirmalar ■ Yirik korxonalar

Yirik pudrat korxonalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi – 3,9 foizni tashkil etdi. Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining – 70,0 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa, – 26,1 foizga qurilish ishlari bajarildi.

Viloyatda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri keldi – 85,7 foiz. Mazkur hududda norasmiy sektorning ulushi – 12,9 foizni tashkil etdi.